

## TIBBIY FANLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

**Z.I. Yuldasheva**

T.f.n. Agren universiteti katta o‘qituvchi,  
[Zarofatyuldasheva253@gmail.com](mailto:Zarofatyuldasheva253@gmail.com)

**M.I. Raxmatullayeva**

Agren universiteti katta o‘qituvchi,

**Tadjiboyeva Nafosat Abdusattarovna**

[Nafosattadjibayeva@gmail.com](mailto:Nafosattadjibayeva@gmail.com)

***Annotatsiya:** Ushbu maqola tibbiy fanlarni o‘qitishdagi tajribalarga asoslangan holda, pedagogik texnologiyalarning ilmiy nazaryalari va amaliy metodikasidan foydalib, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, tibbiyotda innovatsion texnologiyalarning o‘rni, ularning samarali amalga oshirish metodikasi haqida so‘z yuritiladi. Pedagogik texnologiyaning nazariy metodlariga asoslanib ularining dars jarayonlari interfaol usullarini qo‘llashda foydalanilgan prinsiplar.*

***Kalit so‘zlar:** Pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, kichik va katta guruhlar bilan ishlash, kadrlar tayyorlash, dars jarayonlari, “Ta’lim tog‘risida”gi qonunlar, “Davra suhbatlari”, turli mashg‘ulotlar o‘tkazish.*

## THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING MEDICAL SCIENCES

**Z.I. Yuldasheva**

Ph.D. Agren University Senior Lecturer,  
[Zarofatyuldasheva253@gmail.com](mailto:Zarofatyuldasheva253@gmail.com)

**M.I. Raxmatullayeva**

Agren University Senior Lecturer,

**Tadjiboyeva Nafosat Abdusattarovna**

[Nafosattadjibayeva@gmail.com](mailto:Nafosattadjibayeva@gmail.com)

**Abstract:** *This article is based on experiences in teaching medical sciences, it is useful from scientific theories and practical methods of pedagogic technologies, it talks about the training of personnel and their qualification, the role of innovative technologies in medicine, and the methodology of their effective implementation. Based on the theoretical methods of pedagogical technology, the principles used in the application of interactive methods of their lesson processes.*

**Key words:** *Pedagogical technologies, interactive methods, working with small and large groups, personnel training, lesson processes, laws "On Education", "Round discussion", various trainings.*

**Kirish:** Hozirgi kunda O‘zbekistonda ta’lim tizimidagi islohatlarning asosini shallantiruvchi bir qator me’yyoriy hujjatlar qabul qilingan va amalga oshirilmoqda. Bular asosida “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlar alohiga ahamiyatga ega. Bu qonunlardan kelib chiqadigan vazifalar ta’lim dasturlari mazmuning yuqori sifatiga erishish va yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilishdir.

Hozirgi globallashuv jarayonida dunyoda iqtisodiy shart – sharoitlar, atrof muhit shiddat bilan o‘zgarimoqda. Aynan yaxshi bilimga ega bo‘lgan, o‘ziga ishongan, ijtimoiy ko‘nikmalarni egallagan yosh avlodgina jamiyatda o‘zgarishlar qilishga qodir.

Ilg‘or pedagogik texnologiyalar dars berishning interfaol usullarini nazarda tutadi. Bu munozara darslari, ishbilarmon o‘yinlar muammoli holatlarni, keys stadilarni yechish va hokazolardir. Ushbu usullar talaba o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirishga muammolarni hal qilishning eng maqbul yo‘llarini topishga yordam beradi. Buning uchun biz o‘qituvchilar zimmasiga bir qator mas’uliyat yuklaydi. Darslasda innovatsion texnologiya elementlaridan foydalangan holda tashkil etish dalzarb vazifalardan hisoblanadi.

Tibbiy fanlarni o‘qitish metodikasi barcha fanlarga taaluqli bo‘lgan pedagogic qoidalarni o‘quv materiallariga tadbi etishga yo‘nalgan. Shu bilan bir qatorda tibbiy fanlarni o‘qitish usullari tabiiy, ilmiy, biologik, kimyoviy, psixologik, anatomik, fiziologik pedagogik bilimlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Tibbiy fanlarni o‘qitishning hozirgi davrda samarali bo‘lishi talabalarning o‘quv, mehnat va jamoat faoliyatlarida qatnashishi uchun zarur bo‘lgan bilimlar, ko‘nikmalar, malakalarni egallaganliklari bilan belgilanadi. Ular esa o‘z navbatida talabalarning tarbiyalanganlik natijasida dunyoqarashi, e‘tiqodi, jamiyat va shaxsga bo‘lgan munosabatida namayon bo‘ladi. Talabalarning rivojlanish darajasi, fikrlash qobiliyati, aqliy jihatidan takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoji bilan ifodalanadi.

Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talabalar egallagan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, klinik fikrlashlariga xatto xulosalarini ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchanlik vazifasini bajaradi, bu o'quv jarayonida talaba asosiy ob'ekt ga aylanadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innavatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotlarni o'zlashtirish va o'zlashtirilgan bilimlarni o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. O'quv mashg'ulotlarida qaysi interfaol metodlarni qo'llanishi o'qituvchining o'zi belgilaydi. Mashg'ulotning senariysini ishlab chiqadi. Biz "Chaqaloqlik davri kasalliklari" mavzusi orqali ba'zi uslublarni qo'llab o'tish maqsadga muvofiq deb hisobladik va uni e'tibotimizga havola etmoqchimiz. Ushbu keltirilgan uslublar deyarli barcha mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Bundan tashqari ushbu uslublar o'tilgan mavzularni so'rashda yoki yangi mavzuni bayon qilayotganda bilimlarni mustahkamlash uchun ham foydalanish mumkin.

Insert uslubi – talabalarni samarali o'qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo'yilishiga e'tibor qaratiladi. So'ngra matnda uchraydigan har turdagi axborotlarning belgilanishiga o'tadi. Insert – matn bilan ishlash jarayonida ta'lim oluvchiga o'zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini beradi.

Insert – o'zlashtirishning majmualari vazifalarini yechish va o'quv materiallarini mustahkamlash, kitob bilan ishlashning o'quv malakalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan o'qitish usulidir. (1)

Matnni belgilash tizimi:

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma'lumot.

(-) - men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o'ylantiradi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

### Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Chaqaloqlik davrlari				
Asfiksiya				
Tug'ruq jarohatlari				
Chaqaloqlar gemolitik kasalliklari				
Teri va kindik kasalliklarining tug'ma va orttirilgan kasalliklari				

## Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar:

### 1 – guruh topshirig‘i:

- 1.«Asfiksiya»va ularning tasnifi,belgilari,profilkatikasi.
- 2.Chizma yoki slaydlarda ifodalab berish

### 2 – guruh topshirig‘i:

- 1.Tug‘ruq jarohlari va ularning tasnifi,belgilari,profilaktikasi
- 2.Chizma yoki slaydlarda ifodalab berish

### 3– guruh topshirig‘i:

- 1.«Chaqaloqlar gemolitik kasalliklari»ni belgilari,tekshirish usullari, davolash, profilaktikasi
2. Chizma yoki slaydlarda ifodalab berish

## “Blits o‘yin qoidasi”

Berilgan ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida blits o‘yin o‘tkaziladi. Ushbu o‘yinda talabalar guruhlariga bo‘lingan holda jadvalni to‘ldirishlari kerak.

Jadval algoritmik ketma-ketlikda to‘ldiriladi. Avval talaba yakka xolda fikrlarning ketma-ketligini belgilaydi so‘ngra gurux bilan ketma-ketligini belgilaydi. O‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri ketma-ketlik e‘lon qilinganidan keyin talaba yakka va guruxdagi xatosini to‘g‘rilaydi.Katta sondan kichigini ayiradi. Jami ballar soni xisoblanadi.Kam natija to‘g‘ri javob

## «Blits-so‘rov» savolnomasi savol-javob vaqtida to‘ldiriladi

№	Savollar	Javoblar
1.	Asfiktsiyani qanday darajalari mavjud?	
2.	Tug‘ruq jarohatlari sabablari, klinikasi, davolash va parvarishlash	
3.	Gemolitik chaqaloqlar kasaliga sabablari, profilaktikasi	
4.	Chaqaloqlar gemolitik kasallikni klinik formalarini sanab o‘ting?	
5.	Teri kasalliklarining tug‘ma va ortirilgan kasalliklari	
6.	Sepsis sabablari ,rutlari ,klinikasi,parvarishlash	
7.	“Omfalit”nima va uning turlari	
8.	“1-2 darajali asfiktsiya belgilari bu -	
9.	Kindik kasalliklarini belgilarini sana bo‘ting	
10.	Chaqaloqlik davri kasalliklarini davolash?	

Esselarni ko‘proq uyga vazifa yoki tegishli mavzularni talabalar mustqil o‘rganishlari sifatida tavsiya etilayotganda yaxshiroq natija beradi. Shu o‘rinda esse nima ekanligi haqida to‘xtalib o‘tish joi deb hisoblaymiz.

### ESSE

Esse – taklif etilgan mavzuga 1000dan 5000 tagacha insho.

Esse – bu muallifning shaxsiy nuqtai nazarini yozma ravishda erkin ifoda etish shakli,qandaydir predmet bo‘yicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashini o‘z ichiga oladi.

### Besh daqiqalik esse

Besh daqiqalik esse - o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha olingan bilimlarni umumlashtirish,mushahoda qilish maqsadida o‘quv mashg‘ulotlari oxirida 5 – daqiqa oralig‘ida olib boriladi.

Bu usullarni qo‘llash orqali o‘qituvchi talabalarda fan va mavzuga oid qiziqish o‘yg‘otishga, ularda mavzu asosida bilim, malaka hamda ko‘nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, kengaytirish va mustahkamlashga erishadi.

**Xulosa:** Hozirgi kunda ta’lim tizimi va uning sifatiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim tizimiga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar kirib kelmoqda. Ulardan foydalanishdan maqsad, barkamol avlodni tarbiyalashda zamonaviy ta’lim tizimiga javob beradigan, turli xildagi dars medotlari, zamonaviy o‘quv tajribalari va mashg‘ulotlardan foydalanilgan holda talabalarni bilimli va yetuk malakali kadr bo‘lib yetishishlarini ta’minlash.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Golish L.V., Fayzullayev D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyhalashtirish va rejalashtirish: O‘quv uslubiy qo‘llanma. Innovatsion ta‘lim texnologiya seriyasi-T –“Iqtisodiyot” nashri 2011 yil.
2. <https://nauchniyimplus.ru> Tibbiy ta‘limda interfaol usullardan foydalanish .
3. <https://cyberleninka.ru> Aniq fanlar o‘qitish metodikasi.
4. <https://lex.uz> O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim tog‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23 senryabr.